

**MAKTABGACHA BO'LGAN BOLALARDA CHET TILINI O'QITISHNING
ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI****KOMILOV SHAHOB SHOKIR O'G'LI***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Pedagogika ta'lim yo'nalishi**8-P-22 guruh 2-bosqich talabasi***MOHINUR QAYUMOVA MURODULLAYEVNA***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili**fani o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

Anotatsiya Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitishni yo'lga qo'yish va kichik yoshdagi bolalarga bosqichma – bosqich chet tilini o'qitishni nazarda tutadi.

Kalit s'oz ingliz tili o'yin zamonaviy metod nazary.

Annotation This article envisages the establishment of foreign language teaching in preschool educational institutions and the step-by-step teaching of a foreign language to young children.

Key words English game modern method theory.

Kirish Biz bilamizki, bugungi kunda ingliz tilini o'rganish yoshlarimiz orasida kengayib bormoqda. Hukumat tomonidan ham yoshlarga chet tilini o'qitish uchun keng imkoniyatlar ham yaratilib berilmoqda. Xususan bugungi kunga kelib chet tiliga bo'lgan talabning oshganligini ham ko'rishimiz mumkin. Shu sababli hukumat tomonidan chet tilini o'qitishni maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlash yo'lga qo'yilmoqda. Chet tilini o'qitishni maktabgacha ta'limdan boshlash orqali ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin. Ya'ni bolaning kichikligidan chet tilini o'qitishni bosqichma bosqich olib borish katta natijalarga olib keladi. Bunda bolaga ingliz tilini o'rgatishda turli usul, metod, o'yinlardan foydalanish zarur.

Asosiy qism Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni aytish kerakki, 6-7 yoshli bolalar so'zlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Bu borada bolalarga chet tilini o'rgatishning o'z metod va yondashuv usullari bor. Zeroki, zamonaviy pedagogikaning vazifasi bola rivojlanishining barcha sohalariga uyg'un ta'sir qiladigan, murakkab va noyob bo'lmagan usullarni izlash va yaratishdan iborat. Erta ta'lim jarayoni maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalariga chet tilini chuqur o'rganishiga turtki bo'lib, kelajakda ular nutqining ravonligini ta'minlashga imkon beradi. Chet tilida

so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o'rganib oladi. Bu olimning yozishicha, chet tilini o'rganish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Birinchi maqsad - til o'rganayotgan xalqning ijodi bilan tanishish. Ikkinchisi esa, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, chunki til o'rganish insonning miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni har tomonlama rivojlantiradi. Uchinchi maqsad - shu xalqning madaniyati bilan yaqinroq tanishish va ular bilan oson muloqotga kirisha olish. Keyingisi esa, shu xorijiy mamlakat odamlari bilan bemalol o'zlarining tillarida xat yozisha olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli, yoqimli va tabiiy kundalik mashg'ulot tarzida olib borilishi lozim va bu bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tishni talab qiladi.

Bolalar o'z ona tilini o'rganar ekan, ularning ota-onalari va tarbiyachilari til o'rgatishda jismonan faol ishtirok etadilar. Ular ko'rsatadilar va ko'rsatmalar beradilar va bola xuddi shunday javob beradi. Hech kim juda kichik bolalardan gapirishni talab qilmaydi : faqat tinglash va tushunish. Natijada bolalar o'z ona tillarini o'rganish metodi bilan birgalikda qo'shimcha tillarni o'zlashtiradilar. Shuni takidlash lozimki, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun yana shu kabi usullardan foydalanish mumkin:

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish.

Tarbiyalanuvchilarga ingliz tilini o'rgatishda turli usullardan foydalanish mumkin. tarbiyalanuvchilarga ingliz tilini o'rgatishda mashg'ulotimizni turli o'yinlar orqali o'tkazishimiz mumkin. Mashg'ulotni boshlashdan oldin uni qanday tushuntirishni o'ylab ko'rish kerak. Tushuntirish juda qisqa, aniq, lo'nda bo'lishi kerak. O'yin mazmuni, qoidalarini tushuntirishda mayda gaplardan xoli bo'lish zarur. Undan keyin o'yinchilardan kim qaysi yerda qanday holatda turishini aytib o'tish kerak. Uch yashar bolalarning bilim doirasi tor bo'ladi, diqqati doimo chalg'ib turadi. Shuning uchun bolalarga oddiy va ularga oson tushunadigan o'yinlarni o'rgatish kerak. Bunday o'yinlarda qush va hayvonlar yoki ularning rasmlari, o'yinchoqlar, ertaklardan foydalanilsa yaxshi bo'ladi. Bu o'yinlar, albatta, mazmunli va ibratli bo'lishi shart. Til materialini yaxshiroq bilgan kishi g'olib hisoblanadi . Shunday, kichik holatda bolalarga chet tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun ko'rish va eshitishni boshqarish mumkin. Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rqmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi. Bolalar

o'rtasida musobaqalar judayam muhim, sababi bolalarda yoshligidan raqobat tuyg'usini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Ana shudagina har bir bolada motivatsiya tilga bo'lgan qiziqish uyg'onadi.

Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passive o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi. Quyida Sizga ingliz tili darslari davomida o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlarni taqdim etiladi.

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam)

Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin O'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga kopto'kcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo.

Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir biror inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o'rganayotgan bo'ladi.

Bu o'yin biroz boshqacharoq qilib o'zgartirsangiz ham bo'ladi. Biror mavzuga so'z aytish o'rniga, har bir o'quvchi keyingi o'quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, siz "say something red" (biror qizil narsani ayting) deb o'yinni boshlashingiz mumkin. Kopto'kni ushlab olgan birinchi o'quvchi "strawberry" deb keyin o'zi biror mavzu tanlab ko'ptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o'yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o'quvchi biror so'z haqida o'ylashidan oldin, qaysi mavzuga doir so'z o'ylashi kerakligini ham bilishi lozim.

Pictionary

Ko'pchilik ingliz tilida so'zlashuvchilar Pictionary, rasm chizish o'yini bilan yaxshi tanish. Rasm chizish maqsadi uchun siz oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanishingiz mumkin. Sinfni 2 guruhga bo'lib oling va har bir jamoa uchun doskadaning bir tomonida jadval chizing. Siz jamoalarning ballarini shu yerga yozib borasiz. A jamoadan bir kishi chiqadi. Va ko'pgina teskari o'girilgan so'zlardan bittasini tanlaydi va shu so'zni doskaga chizib beradi. Va boshqalar topishi kerak bo'ladi. So'zni birinchi bo'lib to'g'ri topgan jamoaga ball beriladi. 10 ball olgan jamoa g'olib hisoblanadi.

Xulosa Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilariga xorijiy tilni o'rgatishdan maqsad o'yin orqali bolalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bolalar juda qiziquvchan bo'lishadi muloqotga tez kirishishadi, taqlidga moyillik kuchliligi tufayli ularga o'yin tarzidagi va majburiyatlarsiz darslar o'tilib til o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir. Ular takroriy tinglashlar orqali o'qitiladi natijada ularning gapirish qobiliyati rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zimnyaya I.A. Psychology of teaching foreign language at school/ M:Education, 1991-219p.-
2. Н.А. Бонк Учебник английского языка. Бишкек 1997.
3. К.Д. Ушинский Собрание сочинений Том 10 Материалы к третьему тому Педагогической Антропологии 1950.
4. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.
5. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 59-61.
6. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhliisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.
7. Bekmuratova U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat.2014.
8. SHERZODOVNA, S. J., & MELIKBOBOYEVICH, S. U. (2024). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA CHET TILI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, 50(3), 22-24.
9. Melikboboyevich, S. U. (2024). PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHIDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 50(3), 10-13.
10. Abdimalikovna, M. Y., & Melikboboyevich, S. U. (2024). INGILIZ TILINI ORTA TALIM MAKTABLARIDA OQITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YOLLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(3), 76-79.
11. Melikboboyevich, S. U. (2024). CHET TILI FANLARINI O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISHNING INNOVATSION MATODLARIDAN FOYDALANISH. *TADQIQOTLAR. UZ*, 33(2), 161-164.
12. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA CHET-TILI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(1), 23-27.